

SHULAI OF THE EAST TO THE WEST

Jo'raqulova Samiya

National University of Uzbekistan

2-bosqich talabasi

The God who created the East
Mag'ribni etgandir bino
There is no disaster on the right
North south on the way to the fee

Annotatsiya. Mazkur maqolada buyuk nemis yozuvchisi va mutafakkiri Gyotening sharq adabiyotiga bo'lган qiziqishi va intilishi hamda g'arb ijodkorining sharqona an'analarga xos she'riyati haqidagi mulohazalar keltirilgan, shu bilan birgalikda Gyote mug'anniyomalarining Fano mug'anniyomalariga o'xshash va farqli jihatlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Gyote, mug'anniyoma, g'arbu sharq devoni, Fano, noma janri, sharq yozuvchisi, to'rtliklar, Salim Buxoriy, talmeh san'ati

Noma janridagi she'r turlaridan biri bo'lган "Mug'anniyoma" aslida tasavvufiy qarashlarga asoslangan bo'lib, go'yo hofizga, aslini olganda esa, Allohga murojatdir. Bu taxlit nomalar esa buyuk sharq yozuvchi va shoirlari ijodida "sitoradek" ko'zga tashlanuvchi an'anaga aylangan.

Yoshligidan sharq tasavvufi, falsafasi, diniy hamda dunyoviy qarashlariga shu bilan birga uning adabiyoti va san'atiga qiziqqan nemis yozuvchisi Gyote Qur'on va hadislar tarixi, payg'ambarimiz Muhammad s.a.v haqidagi asarlarning ingliz va fransuz tilidagi tarjimalarini o'qigan. Shu tariqa Gyote ruhiyatida asta-sekin sharqona qarashlar kurtak yoza boshladi. Endilikda uning asarlarida sharq nafasi ufurib turardi. Bu haqda: "Buyuk Gyote qadimgi yunoniston, Rumo ilmu fani bilan birga, sharq madaniyati va adabiyoti yutuqlarini ham tashnalik bilan o'zlashtirgan hamda asarlariga sharqona ruh va she'riyat an'alarini singdirib yuborgan."-deb yozadi professor Najmuddin Komilov. Olmonlar Navoiysi deya nom olgan ushbu ijodkorning sharq mutafakkirlari ijodiga bo'lган intilishi ularga nisbatan cheksiz hurmatni uyg'otadi va uning fikricha jahon she'riyatidagi yetti yulduzning hammasi sharqlik shoirlardir. Sharq olamidagi anashu yettita yulduz qatorida Sa'diy, Hofiz va Navoiylarni tilga olar ekan, Gyote; "Men ularning soyasiga ham arzimayman" deydi. Biroq kamtar shoir o'zining 'G'arbu sharq devoni" asari orqali nafaqat mag'rib dengizida sayohat etishi, balki mashriq adabiyoti bo'stonida ham gullab yashnashini isbotlab beradi.

Asar tamomila sharqona uslubda yozilganligi uning mundarijasi mug'anniyoma, hofiznomma, ishqnomma, tafriqnomma, ranjnama, hikmatnomma, temurnoma, zulayhonoma, soqiyonna, masalnomma, forsiynoma, xuldnoma kabilardan iboratlida yaqqol aks etgan. "G'arbu sharq devoni" asari o'zbek tiliga Sadriddin Salim Buxoriy tomonidan tarjima qilingan. G'arbda o'z shulasini taratgan ushbu asardagi mug'anniyomalar haqida fikr yuritar ekanmiz uni To'g'aymurod Mirzo Siddiq ya'ni Fano mug'anniyomalariga qiyosan o'rgandik. Otabek Jo'rabyoyev o'zining "Mumtoz adabiyotda mug'anniyoma" risolasida shoir mug'anniyomasiga o'ziga xos badiiyat namunasi deya tarif beradi.

Bu mug'anniyoma to'rtliklari shakliy jihatdan bir xil emas. Ular goh ruboiy tarzida: a-a-b-a; yoki du bayt (ikki bayt) tarzida: a-a-b-b o'laroq qofiyalanib keladi. Ammo bu jihat asarning g'oyaviy tematik izchilligiga putur yetkazmaydi. Aksincha muallifning to'rtliklar yaratishdagi rang- baranglikka amal qilganini ko'rsatadi.¹ Fano mug'anniyomalar murabba shaklda yozilgandir.

1. ¹:Mumtoz adabiyotda mug'anniyoma" risola/ O. Jo'rabyoyev- Toshkent, "Tamaddun" nashriyiti, 2016.

Gyote mug'anniyomasining esa tasavvufiy qarashlarga asoslanganligi uning dastlabki Hijrat she'ridayoq namoyon bo'ladi.

Taxtlar qulab ne taajjub

Xarob shimol, mag'rib, janub

Sharqqa xijrat erur vojib

Unda ishqu, mayu, mutrib

Hamda Xizr suvi bordir

Boqiy umr senga yordir

Shoirning ushbu misralari orqali o'sha davr g'arb hayotida ijtimoiy-davlat tuzumi tanazzulga yuz tutayotgan sharoitda, o'zining ruhan sharq hayoti, madaniyati va e'tiqodiga hijrat etgani namoyon bo'ladi. Asar mazmuniga chuqurroq yondashgan inson esa sharq e'tiqodini ulug'lovchi shoirona ramziylik orqali payg'ambarimiz Muhammad s.a.v ning dushmanlardan qochib Makkadan Madinaga hijrat etishlari nazarda tutilganini payqaydi.

Gyote mug'anniyomalari otilik (musaddas) va to'rtlik (murabba) shakldagi she'rlardan iboratdir. Ular du bayt tarzida (masnaviyda) ya'ni: a-a-b-b-v-v tarzida qofiyalangan.

Bu ikki millat yozuvchilarining yana bir o'xshash jihatlari o'z asarlarida talmeh san'atiga qilgan murojatlaridadir. Bunga misol qilib Gyotening yuqorida keltirilgan she'riy parchasidagi

Hamda Xizr suvi bordir

Boqiy umr senga yordir

Baytida hazrati Xizrga ishorasini ko'rishimiz mumkin. Undan tashqar:

Hayratlanma, Anda paydo

Nasli Odam bilan Havo

Haqqa qabul bo'lsa agar

Murojati bani bashar

To'lib inson ziyo bilan

Suhbat etsa Xudo bilan

Misralarida Odam alayhissalomga va Momo Havvoga ishorati orqali talmeh san'atining go'zal na'munalarini ko'rishimiz mumkin.

Xususan, Fano mug'anniyomalari orasidagi

Deb ermish Arastu o'shal nag'mai sanj,²

Erur musiqiy ilmida koni ganj.

Ragi jonda³ g'amdin erur go'shmo⁴

Mug'anniy olur dafi⁵ bila ranj.

To'rtligida ham qadimgi yunon faylasufi Arastuga ishorasi orqali Talmeh san'atiga qo'l urgani namoyon bo'ladi. Yuqoridagi misralarda To'g'aymurod Mirzo Siddiq musiqaning inson dardiga malham ekanligini, uni dardlarga darmon bo'la olishini, Arastu nigohida bir likopchaning musiqiy ilmida tengi yo'q xazina ekanligi hamda, g'amdan jon tomiri buralib azob chekayotgan mug'anniy esa, childirmasini chalib bor alamidan chiqishini izohlash orqali isbotlab beradi. Shu bilan birga juda go'zal misralarga mohir muallif bo'ladi.

Ko'rindiki Gyote o'z ijodida g'arb madaniyati va nasroniy dini bilan chegaralanib qolmay, o'z dunyoqarashini sharqona ilmlar bilan boyitib borgan buyuk ijodkordir, va uning sharq adabiyotiga qilgan ijodiy safarini Fano kabi mohir ijodkorlar qalamidan qolishmaydi desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu bilan birlgilikda Iogan Wolfgang Gyote ushbu asari orqali sharqning endilikda g'arb bilan uzlusiz bog'liqligini ko'rsatib bergen, va o'z asarid shunday degan:

Agar sen qalban bilimdon bo'lsang

Quyidagi fikrni anglagin-

Bugun g'arb va sharq

Chambarchas bog'lanishgan

² Sanj-musiqiy asbob sifatida ishlatalidigan likop

³ Ragi jon- jon tomiri

⁴ Go'shmo-quloq burash

⁵ Daf-chertib chalinadigan, doira shaklidagi yog'och gardishga xom teri qoplاب yasalgan musiqa asbobi, childirma.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mumtoz adabiyotda mug'anniynoma" risola/ O. Jo'raboyev- Toshkent, "Tamaddun" nashriyiti, 2016.
2. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasining 2009 yil 31- soni.
3. "Sharq va G'arb" toshkent "O'zbekiston", 1997.

